



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi

___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ning

20__-20__-o'quv yili 7-sinf
o'zbek tili fanidan III chorak uchun

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 7-sinf o‘zbek tili fanidan III chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Xush ko‘rdik	1		
2.	Mahalla guzari	1		
3.	Mehmondo‘stlik	1		
4.	Yon qo‘shni – jon qo‘shni	1		
5.	Mahalla bo‘ylab	1		
6.	Hashar elga yarashar	1		
7.	Frenkning kundaligidan	1		
8.	Adabiy o‘qish. “Qarz”	1		
9.	4-BSB. (25 ball) Matn bilan ishlash	1		
10.	Ona Vatanim	1		
11.	Transport	1		
12.	Festivallar	1		
13.	Navro‘z sayli	1		
14.	Yoqimli ishtaha	1		
15.	Ilm-fan inshootlari	1		
16.	Yurtimizdagi teatrlar	1		
17.	5-BSB. (25 ball) Rasm asosida matn yaratish	1		
18.	Adabiy o‘qish. “Hellados”	1		
19.	Koinotga sayohat	1		
20.	Yer sayyorasi	1		
21.	Yetti iqlim	1		
22.	Dunyo xalqlari	1		
23.	Dunyo tillari	1		
24.	Dunyodagi tengdoshlarim	1		
25.	Dunyo kutubxonalari	1		
26.	Muzeylar	1		
27.	Nobel mukofoti sovrindorlari	1		
28.	Adabiy o‘qish. “Chol va dengiz”	1		
29.	3-CHSB. (40 ball) Test topshiriqlari	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Xush koʻrdik

Maqsadlar:

- a) taʼlimiy: oʻquvchilarga yangi mavzu boʻyicha yangi bilimlar berish, oʻzbek tilidagi qoidalar va toʻgʻri yozish koʻnikmalarini shakllantirish.
- b) tarbiyaviy: oʻquvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uygʻotish.
- d) rivojlantiruvchi: oʻquvchilarning ogʻzaki nutq koʻnikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy oʻquv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Ogʻzaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni ogʻzaki tasvirlay oladi; oʻquv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: boʻgʻin koʻchirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan soʻzlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va gʻoyasini aytadi.

Darsning metodi: ogʻzaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: oʻquv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, “Oʻqituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yoʻqlama qilish, oʻquvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:

Assalomu alaykum! Mening ismim Suhrob. Men 7-sinfda oʻqiyman. Bu – men yashaydigan mahalla. Har kuni maktabga ketayotgan paytimda mahalla-mizning sokin va ozoda koʻchalarini tomosha qilishni yoqtiraman. Ertalab supurilgan, suv sepilgan koʻchalardan oʻtar ekanman, kecha tarix darsida ustozimiz keltirgan maʼlumotlar esimga tushdi. Ustozimizning aytishicha, mahalla haqidagi ilk maʼlumot X asr tarixchisi Narsha xiyning “Buxoro tarixi” kitobida keltirilgan ekan. Mahallamiz guzari ham juda chiroyli. Mana, nonning shirin hidi anqib turgan novvoyxona, Odil amakim ishlaydigan sartaroshxona. Hammalari ertalabdan ishni boshlab yuborishgan.



Mahallamizdan katta anhor oqib oʻtadi. Yozda bu yerga oʻrtoqlarim bilan har kuni choʻmi l gani kelamiz. Anhor boʻyida joylashgan choyxonada choyxonachi Ikrom aka ishni boshlab yuborgan. Birpasdan keyin bu yerga mahallamizning yoshi ulugʻ nuroniylari kelib, suhbatlashib oʻtirishadi. Men ularga salom beraman, ularga koʻmaklashaman.

Mana, maktabga ham kelib oldim. Maktabimiz binosi mahalla guzarining yonida joylashgan. Bugun ustozimiz mahalla boʻylab sayohatga olib chiqishini aytganlar. Ustozimiz sayohat davomida mahallamiz tarixi haqida qiziqarli maʼlumotlar, afsona-yu rivoyatlar aytib bermoqchi. Oʻylaymanki, sayohat davomida koʻplab yangi maʼlumotlarga ega boʻlamiz.

Oʻylang va toping. Gapiring. Ha/yoʻq.

Mahalla haqidagi ilk maʼlumotni Suhrobning ustози aytadi.	
Odil amaki choyxonada ishni boshlab yuborgan.	
Suhrob ustози va sinfdoshlari bilan mahalla boʻylab sayohatga chiqmoqchi.	
Mahalla haqidagi ilk maʼlumot XII asrga toʻgʻri keladi.	
Suhrob mahallasidagi nuroniy otaxonlarning duolarini oladi.	



DIQQAT QILING

Men		-m	Biz		-k
Sen	... + gan	-ng	Siz	... + gan	-ngiz
U		-	Ular		-lar

O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Bizning uyimiz mahalla guzari yonida joylashgan.

1. Bizning uyimiz mahalla guzari yonida (joylashmoq).
2. Buvimning aytishicha, oldinlari mahallamiz o'rtasidan katta anhor (oqmoq).
3. Ko'chamizdagi chinor daraxtini mening bobom (ekmoq).
4. Bobom uzoq yillar mahalla oqsoqoli (bo'lmoq).
5. Mahallamiz bugun obod qishloqqa (aylanmoq).

O'ylang va toping. Yozing.

Ot (1 ta)	Mahalla
Sifat (2 ta)	
Fe'l (3 ta)	
Gap (4 so'zdan iborat)	
Sinonim (1 ta)	

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Alisher Navoiy mahallaga qanday ta'rif beradi?
2. Mahallangizdagi urf-odat, qadriyatlar haqida gapirib bering.
3. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan maqolni qanday izohlaysiz?
4. Sizga mahallangizdagi qaysi joylar yoqadi? Nima uchun?

IV. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifani e'lon qilish: Mahallangiz tarixi haqida oila a'zolaringiz yordamida ma'lumot to'plang.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Mahalla guzari

Maqsadlar:

- a) ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, o'zbek tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.
- b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.
- d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:



Mahallamiz guzari

Bu – mahallamiz guzaridagi kutubxona. Kitobga qiziqadigan bolalar kutubxonadan bema-lol foydalanishi mumkin. Hozir dars tugagani uchun sinfdoshlarim shu yerga kelgan.

Bu – mahallamiz "Yoshlar guzari"dagi tikuvchilik xonasi. Tikuvchi qizlarimiz Zumrad va Saodat. Bu yerda chevarlik hunarini o'rgangan qizlar ishlaydi. Bu – novvoyxona. Unda mahallamizning taniqli novvoyi Ixtiyor aka ishlaydi. U yopgan nonlarga talab shunchalik ko'pki, kecha-yu kunduz qo'li qo'lga tegmaydi. Ixtiyor aka o'z kasbini juda qadrlaydi.

Bu yerda esa sartaroshxona joylashgan. Rustam aka – o'z ishini juda yaxshi biladigan sartarosh. Shuning uchun m^ozlari doim xursand. U barchaga samimiy munosabatda bo'ladi.

3. O'ylang va toping. Yozing.

Naqorat



Naqarot



Namuna:

Sinf doshlarim kutubxonada kitob o'qiyapti.

	Kim?	Qayerda?	Nima(ni)?	Nima qilyapti?
1			kitob	
2	Zumrad			
3		novvoyxonada		
4	Rustam aka	sartaroshxonada	ustarani	ishlatyapti

O'ylang va toping. Gapiring.

B	O	G'	D	O	R	I	X	O	N	A	O
E	Y	G	E	G	S	A	T	F	K	D	D
K	K	U	T	U	B	X	O	N	A	S	K
A	Q	Z	A	X	O	D	G	J	F	A	O'
T	M	A	K	T	A	B	O	G'	Ch	A	Ch
s	A	R	T	A	R	O	SH	X	O	N	A
P	T	T	U	K	V	E	X	U	Ch	Q	V
N	O	V	V	O	Y	X	O	N	A	G	Y
J	L	V	D	O'	K	O	N	P	N	Y	J
H	CH	O	Y	X	O	N	A	T	B	L	X

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Tinglagan qo'shig'ingizda qishloq qanday tasvirlangan?
2. "Vatan ichra kichik vatandir" jumlasidan nimani tushundingiz?
3. "Har kimga aziz tug'ilgan joyi, Tog'lari, bog'i, tuprog'i, loyi". Insonga yana nimalar aziz bo'lishi mumkin?
4. Qo'shiqning naqaratini aytib ko'ring.

IV. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifani e'lon qilish: Mahallangizdagi o'zingiz yoqtirgan bino va inshootlar haqida ma'lumot to'plang.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

59 listdan iborat 7-sinf o'zbek tili fanidan III chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega
bo‘ling!***

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO‘ ish hujjatlari**
- 11.O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars
ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**